



SCIENCE AND INNOVATION

XALQARO ILMIY JURNALI MAXSUS SONI

GLOBALASHUV VA IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR

2024-YIL, MAY

ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ
**INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL
SCIENCE AND INNOVATION**
**SPECIAL ISSUE “GLOBALIZATION AND ENSURING FOOD
SECURITY UNDER CLIMATE CHANGE: PROBLEMS AND
SOLUTIONS”**
MAY, 2024

XALQARO ILMIY JURNALI
“GLOBALLASHUV VA IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA
OZIQ- OVQAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH: MUAMMO
VA YECHIMLAR” MAXSUS SONI
2024-YIL, MAY

2024-yil 15-may kuni Toshkent davlat agrar universitetida o‘tkazilgan “Globallashuv va iqlim o‘zgarishi sharoitida oziq- ovqat xavfsizligini ta’minlash: muammo va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tayyorlandi.

Nashr etildi: 16.05.2024. Font: "Times New Roman".



LLC “Science and innovation”
License Mass Media №:1597 27.04.2022
License Publisher №:038864 15.09.2022
Address: 100155, Uzbekistan, Tashkent city, Sergeli district, Quruvchi, 22/43.
www.scientists.uz, info@scientists.uz, +998901259654

Mundarija

	Kirish soʻzi	5
1	Tuxlov Nuriyev, OʻZBEKISTONDA XAVFSIZLIGI BARQAROR RIVOJLANISH OMILI: GLOBAL TENDENCIYALAR VA MUAMMOLAR	7
2	Gʻulomov Saidasror Sayidaxmedovich, QISHLOQ XOʻJALIGINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI (MUAMMO VA YECHEMLAR)	11
3	Xolmirzaev Ibrohimjon Akramjonovich, OʻZBEKISTONDA XAVFSIZLIGINI TAʼMINLASH: ISLOHOTLAR, NATIJALAR VA ISTIQBOLDAKI VAZIFALAR	17
4	Xatamov S.R, OʻZBEKISTONDA XAVFSIZLIGINI TAʼMINLASHDA FERMER, DEKXON XUJALIKLARI VA TOMORQA ER EGALLARINING HUQUQIY VA IKTISODIY SALOHİYATLARINI OSHIRISH	22
5a	Xusniddin Norqul, INTEKSTIV SABZAVOTCHILIKNI RIVOJLANTIRISH IKTISODIY SAMARADORLIGI	32
5b	Aliyev Murodossim Achilovich, OʻZBEKISTONDA XAVFSIZLIGINI TAʼMINLASHDA USIMLIKLAR KARENTIN XIZMATINING AHAMIYATI	39
6	Muxtorov Abdulloqul Halimovich, Obloqulov Abduqayyub Oqilovich, Abduraimova Marjam, Muxtorova Chiray Abduraimovich, OʻZBEKISTONDA XAVFSIZLIGINI TAʼMINLASHNING INSTITUTIONAL ASOSLARI (XORIEKIN TAʼJIRIJA)	45
7	Novitskiy Z.B, Atadjanova G.X, OSUSHENNOE DNO ARALA - REZERV DLYA POLUCHENIYA KORMOV	49
8	Egamberdiev Farmonqul Tursoyevich, Mahmudov Muxammadisomil Muxitdinovich, ANDREKON VILOYATINING BYUJGETINING SHARITLARI VA ULARDAN XUDUD SALOHİYATINI OSHIRISHDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI	55
9	Istomova F.M, Utasov A.A, Davlatov Z.T, Gapiyev S.M, Togayev I.M, Rahmatov A.M, SUB TANKISLIGI SHARITIDA MUQOBIL ENERGIYA ISHLATILGAN TOMCHILATIB SUTORISH TIZIMINI AQOLI TOMORQALARIDA JORIY KILISH BUNCHA SAMARADORLIK KURATKICHLARI	61
10	Abdulla Murat Juratovich, Shatmanova Aijamal Suyalimova, Muxitdinov Nurbek Kuratovich, SOVERSHENSTVOVANIYE TIZIMIGA V AGRARNOM SEKTORE KYRGYZSKOY RESPUBLIKI V USLOVIYAX INTEGRATSI	68
11	Nazirov Zolot Zebisheo Baxtiyrovna, Nazirova Maftuna Salimovna, TURISTIK DESTINATSIYANING SMART MODEL	75
12	Mamadiyarov Dilshod Uralovich, QISHLOQ XOJALIK KORKONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL QILISH ASOSLARI	79
13	Ibrohimjon Baxtiyrov Ibrohimjonovich, Hasanov Oqilbek Mardiyevich, OʻZBEKISTONDA XAVFSIZLIGINI TAʼMINLASHDA EKOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISHNING AHAMIYATI	86
14	Chirayev Kurbon Amirovich, Kasimova Nazira Baxtiyrovna , OʻZBEKISTONDA TAʼMINOTIDA BOGDORCHILIK MAHSULOTLARINING URNI VA AHAMIYATI	91
15	Obidjon Khaidov, Dilshod Yavmutov, Sardorjon Burkhanov, INCREASING THE EFFICIENCY OF GREEN INVESTMENT PROJECTS TO INCREASE THE DEMAND FOR INTERNATIONAL FOOD PRODUCTS IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION	96
16	Saidjonov Sanjar Davlatovich, JAHON IKTISODIYETI GLOBALLASHUVI VA OʻZBEKISTONDA XAVFSIZLIGINI TAʼMINLASHNING ILMIIY-NAZARIY JIQTILARI	101
17	T.Farmonov, OʻZBEKISTONDA XAVFSIZLIGINI TAʼMINLASHDA OLIIY VA ILMIIY-TADKIKOT MUASSASALARINING URNI HAMDA VAZIFALARI	104
18	Namozov Fazliddin Bahromovich, Tursumov Avazbek Abdubuxitovich, QOʻSH EKNILAR PARVARISHLASHNING HOSILDORLIKKA TAʼSIRI	109
19	Islamov Avaz Musayevich, NUROTA TOGʻ TIZMASIDAGI "QIZIL QISHLOQ" SOYIDA TARQALGAN BURCHOQDOSHILAR - FABACEAE OILASIGA MANSUB AYRIM DORIVOR OʻSIMLIKLARINI TARQALISHI VA XOJALIKDA QOʻLLANILISHI	113
20	Mirzaev M.U, TRANSCHEGARAVIY SUB RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNI BOSHQAQARISH VA OZIY OVQAT XAVFSIZLIGINI TAʼMINLASH	117
21	Nurmatova Dilola Dilshod qizi, GLOBALASHUV VA IQLM OʻZGARISH DAVRIDA QISHLOQ XOJALIGIDA GULCHILIKNI RIVOJLANTIRISH	122
22	Nurova N.N, GLOBALASHUV SHARITIDA MAMLAKATIMIZDA STRATEGIK SAVDO SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YOʻNALISHLARI	124
23	Yavmutov Dilshod Shoyimardonqulovich, Mirzaeva Layli, GLOBALASHUV SHARITIDA QISHLOQ XOJALIGIDA MEHNAT BOZORINING SHAKLLANISHI VA UNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	129
24	Yavmutov Dilshod Shoyimardonqulovich, Umarov Aminjon, GLOBALASHUV SHARITIDA QISHLOQ XOJALIGI TARMOQLARINI RAQAMLASHTIRISH	133
25	Begmatov Uchun Xurramovich, BALIKCHILIK XUJALIKLARINI BOSQARUV MEKANIZMLARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIIY NAZARIY ASOSLARI	137
26	Boltayev Nazarbek Narzullayevich , OʻZBEKISTONDA UZUMCHILIK SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING IKTISODIY ASOSLARI	141
27	Shohmatova Zabo Safonova, KIPILOK XUJALIGIDA SUBDAN SAMARALI FOYDALANISHDA ZAMONAVIY RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI KULLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	145
28	Isabosova Muxitbek Botirovna, IKLIM UZGARISHINING DARJELAR SUB REJIMIGA TAʼSIRI	151
29	Kolubayev Shuxrat Sagatdjanovich, Abduraimova Nazira Davlatovna , O KOMMERCIALIZATSI SELEKTSIONNIX SORTOV	154
30	Oqilov Ixom Sayitqulovich, GLOBALASHUV VA IKLIM UZGARISHI SHARITIDA AGROKLASTERLAR MOLIVNIY SAMARADORLIGI TAʼMINLASH TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	157
31	Mamasolov Sardorbek Muxammadisomil oʻgʻli, QISHLOQ HUDUDLARIDA OILAVIY TADBIKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING HUKUMIY ASOSLARI	163
32	Saitova Leyla Puilatovna, METODOLOGIYA FORMIROVANIYA INDIKATOROV USTOYCHIVOYO RAZVITIYE AGRARNOYO SEKTORA	166
33	Saidjonov Zohid Tulayovich, KIPILOK XUJALIGI VA IKLIMDAKI SALBIY UZGARISHLAR	170
34	Xolmurov Sulaymon Utkayev oʻgʻli, OSOBENNOСТИ ИЗУЧЕНИЯ МЕТОДОЛОГИИ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО	174

«GLOBALLASHUV VA IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI
TA'MINLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR»
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI
2024 YIL 15 - MAY

35	Beglayev Uchqun Xurramovich, Sharifova Durdona, DON VA DUKKAKLI DON MAHSULOTLARI YETISHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHDA KOOPERATSIYANING O'RNI	183
36	Elmurodov Abdug'ani Akitamovich, Abdullayeva Yulduz Ulug'murodovna, Oblaberdievva Navruza Sadriddin qizi, BIOTEKNOLOGIK LABORATORIYALARIDA YETISHTIRILGAN KARTOSHKANAVLARINING REPRODUKSIYALARIDA HOSILDORLIGI VA IQTISODIY SAMARADORLIGI	187
37	Ergashev Jamshid Axmadaliyevich, MEVA-SABZAVOT SANOATINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	190
38	Eshqulova Hilola Shoyimqul qizi, SIRDARYO VILOYATIDA CHORVACHILIK TARMOG'IDA FAOLIYAT YURITUVCHI KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING OZIQ – OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI ANAMIYATI	195
39	Karieva Gulnora Abdullaevna, PERSPECTIVE TRENDS FOR DEVELOPMENT OF THE FOOD INDUSTRY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	200
40	Мамажонов Гайбулла Гайратжон ўғли, ЗНАЧЕНИЕ ПОВЫШЕНИЯ УРОЖАЙНОСТИ ГРАНАТА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ОРГАНИЧЕСКИХ И МИНЕРАЛЬНЫХ УДОБРЕНИЙ НА БЛЕДНО-СЕРЫХ ПОЧВАХ	205
41	Найирова Рахнамонов Мухторовна, СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ТЕХНОЛОГИИ ПЕРЕРАБОТКИ ПЛОДОВ ГРАНАТА	214
42	Qodirova Maraljan Matyakubovna, THE CONTEMPORARY TRENDS IN THE DIGITALIZATION OF THE AGRICULTURAL SECTOR AND THE SOCIO-ECONOMIC SPHERE	217
43	Анварова Э.С., Гулнорон Шотмашахон, ГЛОБАЛИЗАЦИЯ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РАЗРЕШЕНИЯ	222
44	Boltayev Nurali Shiramatovich, AGRAR SOHADA KADRLAR TAYYORLASHNING ANAMIYATI	229
45	Сухроб Давлатов, ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СТАБИЛЬНОЙ ИНВЕСТИЦИОННОЙ СРЕДЫ В УЗБЕКИСТАНЕ	233
46	Kubasov Jasur Abdumuminovich, BOZOR MUNOSABATLARI SHAROITIDA ER RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YONALISHLARI	239
47	Juraev Bakrom Bakradidinovich, Xursandova Narigza Rashidovna, IKLIM O'ZGARISHIDA SUB RESURSLARINI OKILONA BOSHQARISH CHORALARINI IJRO ETISH CHIKISHI (KANAL SUB BALANSI HISOBINI MISOLIDA)	242
48	Kosirov Dilshod Tohirovich, Abdullayeva Faytulaza Xabibullayevich, TUPROK SHURLANISHINING YENI "BARQAROR" MOHIYATI HOSILDORLIGIGA TA'SIRINI URGATISH	248
49	Narbayev Zafar Naraliyevich, Ergashev Samandar Ulug'bek o'g'li, O'SIMLIKLARNING EKOLOGIK OMILLAR TA'SIRIGA CHIDAMLILIGINI O'RGANISHDA BIOFIZIK KATTALIKLAR TAHLILI	251
50	Rahmatov Bakhtiyor Nigmatovich, Ikramova Maxbuba Latipovna, Alimkulov Davlat Bobomurotovich, FITOBAK SUYUQ XILORAT MATNISI, KARBAMID VA GUMIN MOJDAKLARINI BIRGALIKDA QILASHNING DEFOIATSIA SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	255
51	Sardor Olojonjonov Sholat Ugli, Galparov Samandor Mamatqulovich, Utasov Abduxolikh Abdurahmonovich, Jomayev Zayniddin Toshmurotovich, GUZARNI MUJALALAT TOMCHILATIB SUFORIYIDA SUB ISTEMOLNI MEYERI	259
52	Zayniddin Xalilova, OT SADA K MIROVOMU STOLU: ANALIZ EKSPORTNOGO RYNKA PLODOVOVOZHNOY PRODUKTSII	265
53	Abdikalilov B.E., Julliev M.K., Gafurova L.A., Kholmurodova M.D., Djanpulatova Z.A., REMOTE SENSING-BASED SALINITY INDICES FOR SOIL SALINITY PROCESSES	271
54	Abdullayev Asliddin Junaydullayevich, AGROKLAUSTER BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI	277
55	Abdullayev Asliddin Junaydullayevich, AGROKLAUSTER BOSHQARUVIDA TABIIY-EKOLOGIK RESURSLARDAN OQILONA FOYDALANISH IMKONIYATLARINI OSHIRISH	283
56	Djumaeva Ozma Ergashevna, BALIQCHILIK XO'JALIGINI KLAUSTER USULIDA RIVOJLANTIRISH	290
57	Otaxonova Odinalon Isomovna, QORAMOLCHILIK XO'JALIKLARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	293
58	Qodratov Erali Sherali o'g'li, YAYLOV YERLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH BO'YICHA RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI (QOZOG'ISTON MISOLIDA)	297
59	Turdiyeva Muqaddas Umarovna, O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA KLAUSTERLARNI SHAKLLANTIRISH CHORA TADBIRLARI VA AMALGA OSHIRILISH YO'LLARI	302
60	Berdiyev Abdumalik Hakimovich, AGROKLAUSTERLARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	306
61	Xatibxonov Abduxolikh, DEKXON VA TOMORQA XUJALIKLARIDA KISHLOQ XUJALIGINI ERLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XUSUSIYATLARI	312
62	Ашурметова Н.А., Мусеава Н.Н., Мирхасенов У.А., АДАПТАЦИОННЫЕ МЕРЫ К ИЗМЕНЕНИЮ КЛИМАТА В ФЕРМЕРСКИХ ХОЗЯЙСТВАХ	318
63	Boltayev Nurali Shiramatovich, AGRAR SOHA UCHUN KADRLAR TAYYORLASHDA BOZOR MEKANIZMLARINI JORIY ETISH YO'NALISHLARI	324
64	Асали Сайдукаевна Джамалова, СОСТОЯНИЕ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ОВОЩЕВОДСТВА В ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ	329
65	Normurodov Sarvar Norboy o'g'li, PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARINI INNOVATSION MENEMENT STRATEGYASI ASOSIDA BOSHQARISH VA RIVOJLANGAN DAVLATLARNING ILG'OR TAJRIBALARI	333
66	Ruzmetov K.Sh., Xudayberganov B.A., Alimova D., PROGRESS ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗЛИЧНЫХ ОТРАСЛЯХ ЭКОНОМИКИ: ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ	339
67	Bobomurodov Kayimjon Homidovich, DEVELOPING AN INNOVATIVE MARKETING STRATEGY TO INCREASE THE COMPETITIVENESS OF THE ENTERPRISE	345
68	Normurodov Jamshid Baxshibek o'g'li, QISHLOQ XO'JALIGIDA MARKETING TADQIQOTLARINI RIVOJLANTIRISH	351
69	Xudayberganov Jamshid Juraiboy Ugli, KAMBAFALLIK DARAJASINI KAMAYTIRISHDA XITOIY TAJRIBASINI URGATISH	357
70	Karimova Maftuna Nurdinova, Ashurmetova Nigora Azatbekovna, MEVACHILIKDA MARKETINGGA ENITIYOJ VA MARKETING STRATEGIYALARINING TAHLILI	361
71	Musulmonova Shabho Nasriddinovna, O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINI QISQARTIRISHGA DOIR "MILLIY MODEL" VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	365
72	Niyozova Irada Niyozovna, Choriyeva Nigina Kakramonovna, GLOBALLASHUV SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIY RIVOJLANISHIDA MARKETING TADQIQOTLARINING O'RNI	370
73	Obidjonov Olimjon Olim o'g'li, Omonov A.A., BANK MAJBURIYATLARI TAHLILI VA AUDITI	375

«GLOBALLASHUV VA IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI
TA'MINLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR»
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI
2024 YIL 15 - MAY

74	Qodirova Nozima Rasudovna, QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISHDA AGROMARKETINGNI QO'LLASHNING AHAMIYATI	381
75	Qulliyev Oshiyor Anvar o'g'li, QISHLOQ XO'JALIGIDA MARKETINGNI O'RNINI	386
76	Ашурметова Н.А., Худайбердиева Ф.М., Ибрагимова М.Ф. ОЦЕНКА ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ ПО МЕТОДОЛОГИИ ФАО	392
77	Бабаджанов Абдирашид Мусасанч, ФИНАНСОВОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ В СФЕРЕ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА	399
78	Шухрат Саттарджанович Козубаев, Муҳаббат Тўрабходжаева, Назира Давидовна Абдурахманова, ПРИНЦИПЫ ОРГАНИЗАЦИИ МАРКЕТИНГОВОЙ СЛУЖБЫ В СЕМЕНОВОДСТВЕ	405
79	Тамрова М.М., Зойнтов Давлат, ЗНАЧЕНИЕ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ	410
80	Xalimxamedova Zeboxon Babaxanovna, Fayzullayeva Rushana Amrullo qizi, MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETINGNI RIVOJLANTIRISH ZARURATI	416
81	Karimova Maftuna Nurdinova, MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARIDA BREND YARATISH - RAQOBATBARDOSHLIK OMILI SIFATIDA	421
82	Murodjon Eshbekov, Iroda Saidmuratova, Turobova H. R. WAYS TO ENSURE THE SAFETY OF AGRO-FOOD IN UZBEKISTAN	425
83	Турсунова Гулчехра Туксановна, КИШЛОК ХЎЖАЛИГИ ТЕХНИК-ТЕХНОЛОГИК САЛОҲИЯТДАН ФОЙДАЛАНИШДА ОЛИМЛАР ФИКРЛАРИ	432
84	Tursunova Khosiyat Said kizi, ORGANIZATION OF DAIRY PRODUCTS PRODUCTION BASED ON WASTE-FREE TECHNOLOGIES	436
85	Ziyadullayev Ilhom Narkabulovich, Mirsohitova Nedira, GO'SHIST ISHLAB CHIQARISHNI KO'PAYTIRISH ORQALI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI	438
86	Nazirova Zulfina, Turobova Halkar, ADAPTATION OF AGRICULTURAL ENTITIES TO CLIMATE CHANGE: WORLD EXPERIENCE	443
87	Баев Адил Хайбуллаевич, ЭФФЕКТИВНОЕ ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДОВ ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ЭКСПОРТА ПЛОДОВООВОЩНОЙ ПРОДУКЦИИ	454
88	Наринбаева Гулнора Каримовна, РАЗВИТИЯ ПЛОДОВООВОЩЕВОДСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	460
89	Дехканова Нилуфар, Муродов Нодир, Шермазаров Мурод, ОЗИҚ-ОВҚАТ САНОАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАРИ ВА УЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ	465
90	Ишанходжаев Т.М., Рахмонов Р.А., Халиков А.Ф., Муртазиев А.К., Сайлиев М.У., Алимова Б.Х., Махсумханов А.А., СКРИНИНГОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ПРОДУЦЕНТОВ МОЛОКОСВЕРТЫВАЮЩИХ ФЕРМЕНТОВ ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА СЫРОВ	470
91	Кучиков Хайдар Касимович, МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ ДОХОДОВ И РАСХОДОВ ДОМАШНИХ ХОЗЯЙСТВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	473
92	Мухриддинов Султонмурод Нарбутаевич, ЎЗБЕКИСТОННИ JAҲОН САВДО ТАШКИЛОТИГА АЪЗО БЎЛИШНИНГ ДОН МАҲСУЛОТЛАРИНИ ҚАЙТА ИШЛАШ ТАРМОҒИГА ТАЪСИРИ	481
93	Султанова Муниса Самаг кизи, РОЛЬ ИННОВАЦИЙ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ УЗБЕКИСТАНА	488
94	Khujanazarova Nargis Shohmurodovna, PROBLEMS AND SOLUTIONS OF ENSURING FOOD SECURITY IN THE CONDITIONS OF GLOBALIZATION AND CLIMATE CHANGE	492
95	Шеракилов Шерали Абдурамонович, ИҚЛИМ ЎЗГАРИШИ ШАРОИТИДА КАРТОШКАЧИЛИК РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	499
96	Ярашев Мухаммадсултон, ИЗМЕНЕНИЕ КЛИМАТА: ВЫЗОВЫ И ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ФРУКТОВ И ОВОЩЕЙ	504
97	Giyazova N.B., Bahomov Sh. Sh. ZAMONAVIY RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI MUAMMOLAR VA CHORA-TADBIRLAR	511
98	Narzullayeva Gulchehra Salimovna, Sayullayeva Madina Ismatovna, QISHLOQ XO'JALIGIDA GENDER TENGLIGI, AYOLLARNI AGROBIZNESGA JALB QILISHNING ALOHIDA XUSUSIYATLARI	519
99	Ochilova Muyassar Alisher qizi, Boltayeva Dilnora Isroil qizi, OCHIQ MAYDONLARDA EKOLOGIK TOZA SHIRIN QALAMPIRI YETISHTIRISHDA O'G'ITLARNING AHAMIYATI	524
100	Oripova S.A., Polotova Z.K., Dadamuxamedova M.S. ZAMONAVIY SHAHAR MUHITINI TAKOMILLASHTIRISHDA JAMOAT MAYDONLARINING ROLI	532
101	Shahlokhon Karimovna Gafurova, IMPORTANCE OF QUALITY MANAGEMENT IN IMPROVING THE QUALITY OF PERSONNEL TRAINING IN THE FIELD OF FOOD PRODUCTION	537
102	Sharapova Nigina Kadirovna, Baxshullayev Abdulaziz, QISHLOQ XO'JALIK IQTISODIYOTI TARMOQLARIDA EKOLOGIYALASHUV DARAJASI TAHLILI	541
103	Xalimxamedova Zeboxon Babaxanovna, Egamberdiyeva Farangiz Ulug'bek qizi, ZAXIRA LOGISTIKASINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING XO'JALIKLAR FAOLIYATIGA TA'SIRI	547
104	Алимов Р.Б., РАСЧЕТ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОРТООБРАЗЦОВ ПЕРЦА СЛАДКОГО	551
105	Асануллина Н.Р., ОСОБЕННОСТИ ПРОЦЕССНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО УПРАВЛЕНИЯ В ЛОГИСТИЧЕСКИХ СИСТЕМАХ ТРАНСПОРТНОГО ЭКСПЕДИРОВАНИЯ	557
106	Дусатова М.Х., Махмуджалева С.Х., ПРЕОДОЛЕНИЕ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ПРЕПЯТСТВИЙ ДЛЯ УВЕЛИЧЕНИЯ ЭКСПОРТА ФРУКТОВ И ОВОЩЕЙ	562
107	Тамрова М.М., Шодиев Маршароф, ПРОБЛЕМЫ КРЕДИТОВАНИЕ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА	567
108	Мухаммадиева Марафона Нормурот кизи, Нормуратов Сарпар Норбой ўли, УЙ-ЖОЙ ҚУРИЛИШНИ РАҚАМЛАШТИРИШ ВА БОШҚАРУВ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ (ТОШКЕНТ ШАҲРИ МИСОЛИДА)	574
109	Rasulova Muxabbat Tishabayevna, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ АПК В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ	579
110	Sadiyova Shuxida Obidqul qizi, QISHLOQ XO'JALIGIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNINI	586
111	Султоноп Сирожаддин Нормуродович, ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПОДГОТОВКИ ВЫСОКОКВАЛИФИЦИРОВАННЫХ КАДРОВ И РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ НАШЕЙ СТРАНЫ	589
112	Xalimxamedova Zeboxon Babaxanovna, Turkulova Shirin Kurmangaziyevna, QISHLOQ XO'JALIK KOXONALARIDA STRATEGIK BOSONQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH	598
113	Aberkulov Mardan Nurbaevich, Abdullayev Baxodir O'razbaevich, Abilbayev O'razbay, SHOLI KOLLEKSIYASIDAN INTRODUKSIYA SIFATIDA FOYDALANISH	603

O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINI QISQARTIRISHGA DOIR "MILLIY MODEL" VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI

Musulmonova Shahlo Nasriddinovna

"Iqtisodiyot" kafedrası o'qituvchisi, Buxoro davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11422427>

Annotatsiya. Hozirda kambag'allik butun dunyoda nafaqat iqtisodiy, balki chuqur ijtimoiy va madaniy muammodir. Jamiyatda daromadlarning yuqori tabaqalanishi tufayli salbiy oqibatlar yuzaga keladi, kelajakda bu qaytarib bo'lmaydigan holatlarga olib keladi. Ushbu maqola O'zbekistonda qashshoqlikni qisqartirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni innovatsion yondashuv asosida baholashga harakat qiladi. Asosiy yutuqlar bilan bir qatorda. Qashshoqlikni qisqartirishda qiyinchiliklarni yengish va imkoniyatlardan foydalanish usullarini taqdim etadi.

Kalit so'zlar: Kambag'allik darajasi, milliy model, qashshoqlikni kamaytirish, aholi farovonligini oshirish, innovatsion yondashuv, ijtimoiy shartnoma.

Аннотация. В настоящее время бедность является не только экономической, но и глубокой социальной и культурной проблемой во всем мире. Из-за высокого доходного расслоения в обществе возникают негативные последствия, которые приведут к необратимым ситуациям в будущем. В данной статье предпринята попытка оценить реформы, реализуемые в сфере сокращения бедности в Узбекистане, на основе инновационного подхода. Наряду с основными достижениями обсуждаются отдельные проблемы, предлагает способы преодоления проблем и использования возможностей в сокращении бедности.

Ключевые слова: Уровень бедности, национальная модель, сокращение бедности, повышение благосостояния населения, инновационный подход, социальный контракт.

Abstract. Currently, poverty is not only an economic, but also a deep social and cultural problem in the whole world. Due to the high income stratification in the society, negative consequences occur, which will lead to irreversible situations in the future. This article tries to evaluate the reforms implemented in the field of poverty reduction in Uzbekistan based on an innovative approach. Along with the main achievements, the article provides ways to overcome challenges and seize opportunities in poverty reduction.

Keywords: Poverty level, national model, poverty reduction, population welfare improvement, innovative approach, social contract.

Ommaviy qashshoqlik ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida deyarli doimiy ravishda ko'pgina xorijiy mamlakatlarda olimlar va siyosiy arboblarning nuqtai nazarida bo'lgan. Qashshoqlik jahon hamjamiyatining asosiy muammolaridan biridir. Qashshoqlik Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi rivojlanayotgan mamlakatlar hamda o'tish davridagi iqtisodiyotga ega mamlakatlarda asosiy ijtimoiy va iqtisodiy tahdid sifatida ko'riladi. Dunyoda iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlariga qaramay, ko'plab mamlakatlarda munosib ish o'rinlari yaratish istiqbollari va ishlayotgan, lekin minimal daromadga ega bo'lgan ko'p sonli odamlar mavjud. Iqtisodiy samaradorlik qashshoqlik va ishsizlikni barqaror qisqartirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, iqtisodiy rivojlanish sog'lom ijtimoiy siyosat bilan birga olib borilishi kerak. Mintaqalar uchun alohida muvaffaqiyatli ijtimoiy-iqtisodiy isloh qiluvchi qashshoqlikni kamaytirish milliy strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishning muhimidir. Bunday

strategiya xorijiy tajribaning ijobiy tomonlarini ham, uning kamchiliklarini ham hisobga olishi kera, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish va mintaqa fuqarolarining farovonligini oshirish, iloji bo'lsa, ijtimoiy rivojlanishdagi xatolar va buzilishlarning oldini olishi zarur.

Kambag'allikdan faqat o'sha qatlama mansub odamlar jabr chekadi, deyish yanglish tushuncha. Bu nafaqat aholi, balki davlatning ham katta dardi, hatto, aytish mumkinki, fojiasidir. Bu holat xalqning sog'lig'i, mehnatga layoqati va ilmiy -ijodiy salohiyatiga putur yetkazadi. Shuningdek, uning oqibati iqtisodiy o'sishning pasayishi va siyosiy jarayonlarning keskinlashishiga sabab bo'ladi. Jamiyatning turli sohalarida ishtirok etish imkoniyati ham cheklangan. Davlat esa bepul o'rta ta'limni ta'minlash, tibbiy xizmatlarni asosiy paketini kafolatlash, ijtimoiy zaif, deb tasniflangan guruhlariga ixtisoslashgan yordam va kam ta'minlangan oilalarga imtiyozlar berishga majbur. Eng yomoni, kambag'allik holatiga tushib qolishdan ko'ra, undan chiqib ketish anchagina qiyinroq. Shu bois jamiyatimizda kambag'allikni qisqartirish ayollar va yoshlar rolini oshirish, birinchi navbatda, ularga malaka berish hamda bandligini ta'minlash zarur. Chunki jamiyatning ma'naviy va ilmiy rivoji yoshlar qo'lida va ularni munosib oyaga yetkazishda ayollar o'rni beqiyos ekanligini qayd etib o'tish lozim. Bu vazifani samarali va sifatli bajarmasdan turib ayollar hamda yoshlar manfaatlar bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy masalalarni tizimli hal etish imkonsiz.

Biz ayta olamizki, yurtimizda aholining muayyan qatlami o'rtasida kambag'allik mavjudligi birinchi marta e'lon qilingan kundan boshlab uni qisqartirish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu ishlar alaloqibat O'zbekistonning o'ziga xos kambag'allikni qisqartirishga doir milliy modelini tashkil qilayapti desak mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, barcha tuman va shaharlarda ehtiyojmand oilalar, ayollar va yoshlar bilan manzilli ishlash bo'yicha mutlaqo yangi tizim – "Temir daftar", "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari" joriy etildi. Buning natijasida ular bilan tizimli, manzilli ish yo'lga qo'yildi. Sektor rahbarlari va mutasaddi idoralar vakillari tomonidan har bir mahallada holat o'rganildi, yoshlar va ayollar bilan birma-bir muloqot qilindi, ehtiyojlari, qiziqishlari aniqlandi hamda shu asosda manzilli choralar ko'rildi. Ishsiz yoshlar va xotin-qizlarda motivatsiya uyg'otib, kasbiy ko'nikmalar shakllantirish, psixologik, huquqiy, tibbiy va moliyaviy ko'mak berildi. "Ijtimoiy shartnoma" tajribasi keng qo'llanish uchun normativ bazasi ishlab chiqilib Buxoro viloyatida pilot tarzda qo'llandi. Bu tizim orqali ko'plab fuqarolarning bandligi ta'minlandi. O'zini o'zi band qilgan aholi uchun soliq imtiyozlari berilishi hamda ko'pgina cheklovlarining bekor qilinishi tufayli ming-minglab fuqarolarimiz mehnat faoliyatini qonuniy tarzda yo'lga qo'ydi. Umuman, pandemiya sharoitida o'z ishini yo'qotgan aholini qo'llab-quvvatlash uchun davlat va hukumat barcha chora-tadbirlarni ko'rtdi. Kambag'allikni qisqartirish va aholining daromad manbalarini oshirish maqsadida "daftar"lar bilan ishlash (jazoni o'tab qaytganlarning ijtimoiy moslashuvi, yoshlar va ayollarni psixologik qo'llab-quvvatlash, ularni chet tillari va kasb-hunarga o'qitish bo'yicha) nodavlat notijorat tashkilotlar imkoniyatlaridan samarali foydalanish va hamkorlikni kengaytirish lozimligi belgilab olindi.

Davlatimiz rahbari tomonidan "Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmon qabul qilindi. Ushbu farmon xalqning turmush darajasini oshirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni yanada qo'llab-quvvatlashga qaratilgan muhim hujjat bo'ldi. Kambag'allikni qisqartirish borasida yagona davlat siyosatini yuritish maqsadida Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tashkil etildi. O'zbekistonda kambag'allikka qarshi kurashish 2017-yildan boshlab mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishi qilib belgilangan. Respublika va hududlar

miqyosida ehtiyojmand oilalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 15 dan ortiq me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, 2021 yilda 70 ming nafar ishsiz fuqaroni 40 turdagi kasbhunarga o'qitish, 39,6 ming nafar ishsizlarni tadbirkorlik ko'nikmalariga o'rgatish, 50 ming kishini tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasi uchun chet tillariga o'qitish reja qilingan. Bundan tashqari, ehtiyojmand oilalarni uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar ko'lamini ham kengaytirilmoqda. O'zbekistonda kambag'allik darajasi yangicha tajriba asosida o'rganilmoqda. Unda jahonning ilg'or mamlakatlari tajribasi, xususan, AQSHning taniqli olimlari, 2019 yildagi Nobel mukofoti laureatlari Abxijit Banerji, Ester Dyuflo va Maykl Kremerning kambag'allikni qisqartirish bo'yicha o'tkazgan tadqiqotlari natijalaridan foydalanildi.

Mamlakatimizning asosiy qonunida davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish va qashshoqlikni kamaytirish choralari ko'rishi belgilab qo'yilgan (43-modda). Mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironlar va boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarning huquqlari davlat himoyasidir (57-modda).

Davlat aholini ijtimoiy himoya qilish va qashshoqlikni qisqartirish bo'yicha samarali va maqsadli siyosatni, shu jumladan, mehnatga layoqatli aholi daromadlarini oshirish mexanizmlarini va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish mexanizmlarini amalga oshirish tarafdori.

"O'zbekiston 2030" strategiyasi ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida islohotlar o'tkazish, ijtimoiy xizmatlar tizimini qayta ko'rib chiqish va qashshoqlikni kamaytirish chora-tadbirlari orqali "har bir inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish"ga qaratilgan.

Mamlakatimizda 2030-yilgacha bo'lgan davrda aholini ijtimoiy muhofaza qilish strategiyasi qabul qilingan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etilgan bo'lib, uning barcha viloyatlarda bo'linmalari hamda mamlakatimizning har bir shahar va tumanlarida "Inson" ijtimoiy xizmat ko'rsatish markazlari tashkil etilgan.

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, mutanosib mintaqaviy siyosatni amalga oshirish, infratuzilma va tadbirkorlikni kompleks rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash kabi ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga olgan 2030-yilgacha bo'lgan davrda "Qashshoqlikni qisqartirish strategiyasi" loyihasi ishlab chiqildi. Iqtisodiy mexanizmlar bilan bir qatorda ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlari samaradorligini oshirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga ijtimoiy yordam va xizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish rejalashtirilgan.

Minimal iste'mol xarajatlaridan kelib chiqqan holda milliy qashshoqlik chegarasi o'rnatildi. Ushbu mezon ko'ra, qashshoqlik darajasi 2021 yilda 17 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilda 14 foizga pasaygan.

Maqsad 2030-yilga borib iqtisodiyot hajmini ikki barobarga oshirish va daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga qo'shilishdir. Bundan tashqari, 2026 yilgacha qashshoqlikni ikki baravar kamaytirish rejalashtirilmoqda. Yordam berish chora-tadbirlarining o'ziga xosligini oshirish maqsadida mamlakatimizda davlat yordamiga muhtoj oilalar va fuqarolarni aniqlashga yondashuv o'zgartirildi. Ehtiyojmandlarni hisobga olish uchun mahallalarda "temir", "ayollar", "yoshlar" daftarlaridan foydalanilmoqda. Nafaqalarni taqsimlashda aniqlik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida yagona elektron ma'lumotlar bazasi – Ijtimoiy himoyaning yagona reestri tashkil etildi. Natijada ijtimoiy yordamga muhtoj oilalarni qamrab olish darajasi oshdi. Jumladan, 2019-yilda Ijtimoiy himoya yagona reestri orqali 595 ming oila ijtimoiy nafaqa va yordam olgan bo'lsa, 2022-yil yakuniga ko'ra bu raqam 4 barobarga oshib,

2,2 million oilaga yetdi. Ushbu maqsadlar uchun qariyb 11,4 trillion so'm (1 milliard dollardan ortiq) yo'naltirildi.

2023-yil 8-noyabrda tashkil etilgan SDG indeksi bo'yicha taraqqiyoti:Taraqqiyot uchun qashshoqlikka qarshi kurashda erishilgan yutuq va strategiyalar muhokama qilingan davra suhbatida BMT Taraqqiyot dasturining doimiy vakili o'rinbosari Anas Fayyod Qarman o'zining kirish so'zida aytgan "Biz O'zbekistonda maqsadli va samaraliroq siyosat chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish imkonini beradigan Milliy ko'p o'lchovli kambag'allik indeksini (MPI) yaratish va sinovdan o'tkazish bo'yicha O'zbekiston hukumati bilan yaqindan hamkorlik qilayotganimizdan xursandmiz. Bu tashabbus hukumatning daromaddan tashqari qashshoqlikning murakkabliklari va ko'p jihatlarini tushunish va ularga qarshi kurashishga sodiqligini aks ettiradi". So'zlari mamalakatimizda amalga oshirilayotgan samarali ishlarning dalilidir.

Yuqorida qayd etib o'tilgan qator ishlar amaliy samaradorligini oshirishning yana bir necha yo'llari mavjudligini aytib o'tish lozim.Dastavval ushbu sohada ishlar samaradorligini pasaytiruvchi omillarni sanab o'tadigan bo'lsak,fikrimizcha ularning ilk qatorida kishilardagi kambag'allik psixologiyasi yotadi.Yetarli moliyaviy savodxonlikka ega bo'lmagan aholini ijtimoiy yordam berish yo'li bilan kambag'allikdan chiqarish imkoni yo'q. Aksincha, ijtimoiy yordam ularda keyinchalik boqimandalik ruhiyati shakllanishiga olib keladiShuningdek, O'zbekiston sharoitini, oddiygina demografik holatni ham e'tiborga olish zarur. Mehnat bozoriga kirib kelayotgan kadrlar soni bilan mavjud ish o'rinlarining soni bir-biriga nomutanosib. Yetarli miqdorda ish o'rinlari yaratilmagani bois odamlar ishsiz qolmoqda. Shu tufayli tashqi mehnat migratsiyasiga ehtiyoj paydo bo'lgan. O'zbekistondagi "ortiqcha" ishchi kuchi shu yo'sinda o'z kunini ko'rib kelmoqda. Aytmoqchi bo'lganimiz, ish o'rinlarini yaratish orqali kambag'allikni qisqartirishda, avvalambor, mamlakatda iqtisodiy o'sishni ta'minlash kerak deb hisoblaymiz. Biz tom ma'noda erkin iqtisodiyotni qura olsak, shunda iqtisodiyot tarmoqlarining o'zi kerakli miqdorda ish o'rinlarini yaratib, aholini ish bilan ta'minlaydi va pirovard natijada O'zbekistonda kambag'allar soni kamaya boshlaydi.

Xulosa:

O'zbekistonda kambag'allikka qarshi kurash haqida gapirganda, turli mintaqalarda, shahar yoki qishloqlarda yashaydigan turli yoshdagi odamlar, erkaklar va ayollar uchun kambag'allikning sabablari juda farq qilishini hisobga olishimiz kerak. Shu nuqtayi nazardan, qashshoqlikka qarshi kurash juda murakkab va ko'p qirrali vazifadir. Shu munosabat bilan, muhtoj odamlarga to'g'ridan to'g'ri moliyaviy yoki tabiiy yordam ko'rsatish orqali qashshoqlik muammosini hal qilishda jiddiy ijobiy natijaga erishish mumkin emasligi ayon bo'ladi. . Bunda ularga amaliy sherik bo'lgan holda ma'lum tadbirkorlikni boshlashga yordamlashish va bu uchun kerakli bilimlar bilan ta'minlash orqali ularni o'ziga va kelajagiga ishonchni oshirishimiz mumkin.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida" PF-29-son Farmoni. 03.12.2021-yil. <https://lex.uz>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish hamda kambag'allik bilan kurashish ko'lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6277-son Farmoni. 11.08.2021. [https:// lex.uz](https://lex.uz).

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-31-son qarori. 03.12.2021-yil. <https://lex.uz>.
5. Shahlo M., Aziza T. External Labor Migration and Informal Employment: Situation, Problems and Their Causes //European Journal Of Business Startups And Open Society. – 2023. – T. 3. – №. 12. – C. 45-50.
6. Shahlo M., Aziza T. Poverty as a Socio-Economic Category //European Journal Of Innovation In Nonformal Education. – 2023. – T. 3. – №. 12. – C. 27-31.
7. Nasriddinovna M. S. SPECIAL DIRECTIONS OF POVERTY REDUCTION IN THE REGIONS //International Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2024. – T. 12. – №. 3. – C. 847-852.
8. Musulmonova S. Mintaqalarda kamg'allik darajasini pasaytirish va xorij tajribasidan foydalanish yo'llari. – 2024.